

O‘ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINING RAQOBATBARDOSHLIGI HOLATI VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI

Bekmurodova F.A.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o‘qituvchisi, PhD

Yunusov M.F.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishning nazariy-huquqiy asoslari, mavjud iqtisodiy holati hamda rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida mamlakat iqtisodiyotining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, investitsiya faolligi, tashqi savdo tarkibi, logistika samaradorligi, mehnat unumdorligi va eksport salohiyati o‘rganildi. Shuningdek, raqobatbardoshlikka ta‘sir etuvchi asosiy tarkibiy, institutsional va innovatsion muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy o‘shirish sur‘atlari yuqori bo‘lishiga qaramay, eksportni diversifikatsiya qilish, logistika tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni kuchaytirish hamda investitsiyalar sifatini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Maqolada milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar va bosqichma-bosqich chora-tadbirlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, eksport diversifikatsiyasi, investitsiya muhiti, logistika, mehnat unumdorligi, innovatsiya, iqtisodiy islohotlar, sanoat siyosati, iqtisodiy o‘shirish.*

ANNOTATION

This article analyzes the theoretical and legal foundations, current economic conditions, and development prospects of enhancing the competitiveness of Uzbekistan’s national economy. The study examines macroeconomic indicators, investment activity, foreign trade structure, logistics efficiency, labor productivity, and export potential. In addition, the main structural, institutional, and innovative challenges affecting competitiveness are identified, and practical recommendations are proposed to address them. The research findings indicate that despite high economic growth rates, there remains a need to diversify exports, modernize logistics systems, strengthen innovation activities, and improve the quality of investments. The article proposes priority directions and phased measures aimed at increasing the competitiveness of the national economy.

Keywords: *national economy, competitiveness, export diversification, investment climate, logistics, labor productivity, innovation, economic reforms, industrial policy, economic growth.*

KIRISH

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish bugungi globallashuv, texnologik yangilanish va geoiqtisodiy raqobat sharoitida har bir davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylanmoqda. Jahon iqtisodiyotida taʼminot zanjirlarining qayta shakllanishi, energiya bozorlaridagi oʻzgarishlar, sanoatning raqamli transformatsiyasi va xalqaro savdo oqimlaridagi beqarorlik mamlakatlardan yangi iqtisodiy moslashuvchanlikni talab qilmoqda. Raqobatbardoshlik masalasi Oʻzbekiston uchun ham alohida ahamiyatga ega. Mamlakatda soʻnggi yillarda iqtisodiyotni liberallashtirish, tashqi savdo tartib-taomillarini soddalashtirish, xususiy sektor rolini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash, sanoatni modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini kengaytirish boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, logistika xarajatlarining yuqoriligi, ayrim tarmoqlarda mehnat unumdorligining yetarli darajada emasligi, eksport tarkibining xomashyo va past qayta ishlangan mahsulotlarga bogʻliqligi, innovatsion faollikning sustligi kabi omillar milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish masalasini yanada dolzarb qiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmonida mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha moʻljallangan ustuvor yoʻnalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqish zarurligi belgilangan. Mazkur hujjatda global oʻzgarishlar, xalqaro bozorlardagi tebranishlar, sanoat va texnologiyalarning tez rivojlanishi hamda global taʼminot zanjirlarining qayta shakllanishi Oʻzbekiston oldiga yangi talablar qoʻyayotgani alohida taʼkidlanadi. Bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb vazifaga aylantiradi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi masalasi xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda keng va chuqur oʻrganilgan ilmiy yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarda raqobatbardoshlikning nazariy asoslari, unga taʼsir etuvchi omillar hamda uni oshirish mexanizmlariga alohida eʼtibor qaratilgan. Xususan, Michael Porter milliy raqobat ustunligini mahsuldorlik, innovatsiyalar, klasterlashuv va firmalar oʻrtasidagi sogʻlom raqobat muhiti orqali izohlab bergan¹.

¹ Michael Porter Porter, M.E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press.

Uning “raqobat ustunligi” konsepsiyasi mamlakatlarning global bozordagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillarni tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, Paul Krugman tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro savdo va yangi iqtisodiy geografiya nazariyalari mamlakatlarning raqobatbardoshligini ishlab chiqarish samaradorligi, tashqi savdo integratsiyasi va iqtisodiy ixtisoslashuv bilan bog‘liq holda tushuntiradi². Dani Rodrik esa o‘z tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat siyosati, institutsional sifat va davlatning iqtisodiyotdagi faol roli barqaror iqtisodiy rivojlanish hamda milliy raqobatbardoshlikni ta’minlashning muhim omili ekanligini ta’kidlaydi³.

Bundan tashqari, Jahon iqtisodiy forumi raqobatbardoshlikni mamlakat mahsuldorligini belgilovchi institutlar, siyosatlar va omillar majmui sifatida talqin qiladi⁴. OECD yondashuvida esa ushbu tushuncha xalqaro raqobat sharoitida aholi uchun yuqori daromad va barqaror bandlik yaratish qobiliyati bilan izohlanadi. Delgado, Ketels, Porter va Stern tomonidan ishlab chiqilgan poydevoriy raqobatbardoshlik konsepsiyasida esa milliy raqobatbardoshlik ijtimoiy infratuzilma, siyosiy institutlar, makroiqtisodiy siyosat va mikroiqtisodiy biznes muhiti bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi⁵. Shuningdek, UNCTAD hamda Jahon banki tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlar raqobatbardoshligi tarkibiy transformatsiya, eksport diversifikatsiyasi, investitsiya muhiti, innovatsion rivojlanish va global qiymat zanjirlariga integratsiya nuqtai nazaridan o‘rganilgan⁶.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish masalalari O‘zbekiston iqtisodchi olimlari tomonidan ham turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Jumladan, Nishanbay Sirajiddinov ilmiy ishlarida O‘zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish, tashqi savdo operatsiyalarini liberallashtirish, eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish va eksportni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalari yoritilgan⁷. Laylo Tashpulatova tadqiqotlarida esa makroiqtisodiy tahlil, investitsiya muhiti, innovatsion moliyalashtirish hamda raqamli texnologiyalarning investitsion faollikka ta’siri o‘rganilgan⁸. Shu bilan bir qatorda, Ibrohim Ilhomjonov ilmiy ishlarida davlat

² Paul Krugman, P. (1994). *Competitiveness: A Dangerous Obsession*. Foreign Affairs, 73(2), pp. 28–44.

³ Dani Rodrik, D. (2004). *Industrial Policy for the Twenty-First Century*. Harvard University, John F. Kennedy School of Government Working Paper.

⁴ World Economic Forum (2017). *The Global Competitiveness Report 2017–2018: Appendix A. Methodology and Computation of the Global Competitiveness Index*. Geneva: World Economic Forum.

⁵ Delgado, M., Ketels, C., Porter, M.E. and Stern, S. (2012). *The Determinants of National Competitiveness*. NBER Working Paper No. 18249. Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research.

⁶ UNCTAD (2004). *Competition, Competitiveness and Development: Lessons from Developing Countries*. Geneva: United Nations Conference on Trade and Development.

⁷ Sirajiddinov, N., Zakirova, S.A., Sultanova, G.K., Ilkhomjonov, I.I. and Mingishov, L.U. (2021). *Povyshenie konkurentosposobnosti ekonomiki Uzbekistana v usloviyakh liberalizatsii i uglubleniya ekonomicheskikh reform*. Tashkent: IQTISODIYOT.

⁸ Tashpulatova, L. and Gayratova, M. (2025). *The impact of digital technology on attracting foreign direct investment: foreign experience and its application in Uzbekistan*. American Journal of Economics and Business Management, 8(10).

institutlari sifati va boshqaruv samaradorligi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida baholangan⁹. Yuqoridagi ilmiy yondashuvlar milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida raqobatbardoshlikni innovatsion rivojlanish, raqamlashtirish, institutsional islohotlar va global iqtisodiy integratsiya bilan bog'liq holda kompleks tadqiq etish zarurati ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston iqtisodiyoti oxirgi o'n yillikda yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, raqobatbardoshlikni baholash faqat YAIM o'sishi bilan cheklanmaydi. Barqaror makroiqtisodiy muvozanat, investitsiya faolligi, eksportning texnologik tarkibi, mehnat unumdorligi, xususiy sektor ulushi, logistika sifati va ishbilarmonlik muhitining amaliy holati birgalikda baholanganidagina real raqobatbardoshlik manzarasi yuzaga chiqadi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha huquqiy asos bir nechta darajada shakllangan: konstitutsiyaviy me'yorlar; tadbirkorlik, investitsiya, innovatsiya va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi qonunlar; raqobat siyosati, xususiylashtirish, sanoat, logistika va eksportni rag'batlantirishga qaratilgan Prezident farmonlari hamda strategik hujjatlar. Mazkur hujjatlarning afzalligi shundaki, ular faqat umumiy deklaratsiya emas, balki aniq maqsadli ko'rsatkichlar va institutsional mexanizmlarni ham belgilab beradi.

1-jadval

O'zbekiston iqtisodiy raqobatbardoshligini shakllantiruvchi asosiy normativ-huquqiy baza

Hujjat	Aniq norma	Normaning mazmuni	Raqobatbardoshlik uchun ahamiyati
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023)	65-modda ¹⁰ .	Bozor munosabatlari, halol raqobat, iqtisodiy faoliyat va tadbirkorlik erkinligi davlat tomonidan kafolatlanadi.	Raqobatbardoshlikning konstitutsiyaviy asosi sifatida erkin bozor, raqobat va mulk shakllari tengligini mustahkamlaydi.
O'zbekiston	67-modda ¹¹ .	Qulay investitsiya va	Investitsiya, tadbirkorlik

⁹ Ilkhomjonov, I.I. (2019). *Teoreticheskie osnovy vliyaniya kachestva institutov i gosudarstvennogo upravleniya na konkurentosposobnost ekonomiki*, in *Upravlenie ekonomikoy, sistemami, protsessami: Proceedings of the III International Scientific-Practical Conference*. Penza/Samara.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023) "The Constitution of the Republic of Uzbekistan". Lex.uz. URL: <https://www.lex.uz/en/docs/6451070>

Respublikasi Konstitutsiyasi (2023)		ishbilarmonlik muhiti, tovarlar, xizmatlar, mehnat va kapitalning erkin harakati, monopolistik faoliyatni qonun bilan cheklash belgilangan.	va raqobat muhitini yaxshilash bo'yicha davlatning bevosita majburiyatini belgilaydi.
Prezident farmoni UP-6019 (06.07.2020)	1-ilova va 2-ilova 6-, 8-, 26-, 27-, 28- bandlar ¹² .	Tovar va moliya bozorlarida raqobatni rivojlantirish strategiyasi; qurilish, bank, telekommunikatsiya, energetika, gaz, temiryo'l va aviatsiya bozorlarida raqobat dasturlari; davlat xaridlarida antimonopoliya normalari; "ochiq osmon" rejimi.	Raqobat siyosatini sektorlar kesimida amaliy mexanizmlarga aylantiradi va logistika hamda transport bozorlarini liberallashtirishga xizmat qiladi.
Prezident farmoni PF-158 "O'zbekiston - 2030" (11.09.2023)	45-, 47-, 53- , 55-, 56- maqsadlar ¹³	Iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish, inflyatsiyani 5-6%ga tushirish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish, transport-logistika integratsiyasini chuqurlashtirish, eksportni 45 mlrd dollarga yetkazish, nodavlat sektor ulushini 85%ga chiqarish.	Milliy raqobatbardoshlikni o'lchab bo'ladigan maqsadli indikatorlar bilan bog'laydi va 2030-yilgacha yo'l xaritasini belgilab beradi.

Manba: Lex.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

O'zbekistonda raqobatbardoshlikning huquqiy asosi yetarlicha keng. Muammo huquqiy bo'shliqda emas, balki mazkur normalarning amaliy ijrosi, sektorlar bo'yicha muvofiqlashtirilishi va natijaga yo'naltirilgan monitoringida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Konstitutsiyaning 65- va 67-moddalari, UP-6019 farmonidagi raqobatni rivojlantirish "roadmap"i hamda PF-158 farmonidagi 45-, 47-, 53-, 55- va 56-maqsadlar iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishning eng tayanch huquqiy blokini shakllantiradi¹⁴.

Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha "Selected Indicators" ma'lumotlari 2016-2025 yillarda iqtisodiyotda bir vaqtning o'zida uchta jarayon kechganini ko'rsatadi: birinchidan, real o'sish sur'atlari saqlangan; ikkinchidan, inflyatsiya va investitsiya bosimi davriy tebranishlarga ega bo'lgan; uchinchidan, tashqi ochiqlik kengaygan,


¹¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023) "The Constitution of the Republic of Uzbekistan". Lex.uz. URL: <https://www.lex.uz/en/docs/6451070>

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni UP-6019-son (2020) "On additional measures for further development of competitive environment and reduction of state participation in the economy". Lex.uz. URL: <https://lex.uz/ru/docs/5693554>

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-158-son (2023) "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-158-son (2023) "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>

biroq importning eksportdan tezroq oshishi joriy hisob va logistika bosimini kuchaytirgan¹⁵.




Rasm 1 O'zbekiston iqtisodiy o'sish dinamikasi, 2016-2025

Manba: World Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Rasm 3.1.1 ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2016-2025 davrida yuqori o'sish trayektoriyasini saqlab qoldi. Eng keskin pasayish 2020-yilda kuzatilgan bo'lib, bu pandemiya sharoitida YAIM o'sishini 1,6 foizgacha tushirdi. Shunga qaramay, 2021-yildan tiklanish boshlandi va 2025-yilda o'sish 7,7 foizga yetdi. Aholi jon boshiga real YAIM o'sishining ijobiy hududga qaytishi iqtisodiy o'sishning faqat ekstensiv emas, balki nisbatan samaradorlik bilan ham bog'liq ekanini ko'rsatadi¹⁶.

¹⁵ World Bank (2026) Uzbekistan: Selected Indicators. World Bank. URL: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/0f93cd231799e55067bb0f83154c216a-0500022021/related/data-uzb.pdf>

¹⁶ World Bank (2026) Uzbekistan: Selected Indicators. World Bank. URL: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/0f93cd231799e55067bb0f83154c216a-0500022021/related/data-uzb.pdf>




Rasm 2 Inflyatsiya va ishsizlik dinamikasi, 2016-2025

Manba: World Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Inflyatsiya 2018-yilda 17,5 foizgacha ko'tarilgan bo'lsa, keyingi yillarda pasayish tendensiyasiga o'tdi va 2025-yilda o'rtacha 8,8 foizni tashkil etdi. Davr oxiridagi inflyatsiya esa rasmiy statistik hisobotga ko'ra 7,3 foiz bo'lgan¹⁷. Ishsizlik 2020-yilda 10,5 foizga ko'tarilganidan so'ng bosqichma-bosqich pasayib, 2024-yilda 5,5 foizga, 2025-yilda esa 5,0 foizga tushgan. Bu natija mehnat bozori tiklanganini ko'rsatadi, ammo ish o'rinlari sifati va unumdorligi masalasi hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda¹⁸.

¹⁷ National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2026) Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan, January-December 2025. URL: https://stat.uz/img/news/4_-talil-2025-j_-yanvar-dekabr-angl-_p47537.pdf

¹⁸ Central Bank of the Republic of Uzbekistan (2026) Year-on-year, month-on-month and cumulative inflation indicators. URL: <https://cbu.uz/en/monetary-policy/annual-inflation/indicators/>




Rasm 3 Investitsiya faolligi va FDI dinamikasi, 2016-2025

Manba: World Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Asosiy kapitalga yalpi investitsiyaning YAIMga nisbati 2016-yildagi 20,2 foizdan 2025-yilda 38,4 foizgacha oshgan. Bu O'zbekiston iqtisodiy modelida investitsiya o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanganini anglatadi. Biroq FDI kiritimlari ko'proq 1,7-3,3 foiz diapazonida qolmoqda. Demak, investitsiya hajmi yuqori bo'lsa-da, uning sifat tarkibi, texnologik sig'imi va eksportga qaytim masalasi hanuz eng muhim savol bo'lib qolmoqda¹⁹.

¹⁹ National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2026) Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan, January-December 2025. URL: https://stat.uz/img/news/4_-talil-2025-j_-yanvar-dekabr-angl-_p47537.pdf



Rasm 4 Tovar eksporti va importining YAIMga nisbati, 2016-2025
Manba: World Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tovar importining YAIMga nisbati butun davr davomida eksport ko'rsatkichidan yuqori bo'lib qolgan. Ayniqsa, 2018-2024 yillarda importning nisbatan yuqori darajasi investitsion talab, uskunalar importi va ichki taklifning ayrim segmentlarda yetarli emasligi bilan izohlanadi. Bu holat modernizatsiya uchun foydali bo'lsa ham, uzoq muddatda eksportning tarkibiy murakkabligi oshirilmasa tashqi muvozanatga bosimni kuchaytiradi²⁰.

Jadval 2

Tashqi sektor va kapital oqimlari ko'rsatkichlari, 2016-2025

Yil	Tovar eksporti/YAIM, %	Tovar importi/YAIM, %	Davlat qarzi/YAIM, %
2016	8.8	11.3	4.8
2017	14.6	17.8	11.6

²⁰ World Bank (2025) Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. URL: <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/2c3adf3e-f349-46a3-b2ea-c44165d9201b>

2018	18.6	29.8	11.4
2019	19.8	30.2	16.7
2020	18.3	27.2	23.8
2021	17.4	28.2	23.0
2022	17.7	30.0	23.6
2023	19.1	33.6	31.5
2024	17.1	28.8	32.6
2025	16.6	27.6	28.6


Manba: World Bank, Uzbekistan Selected Indicators ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2016–2025 yillarda O‘zbekiston tashqi sektorida importning YAIMga nisbatan ulushi eksportga nisbatan ancha yuqori bo‘lib kelgani kuzatiladi. Tovar eksporti/YAIM ko‘rsatkichi 2016-yildagi 8,8 foizdan 2019-yilda 19,8 foizgacha oshgan, keyingi yillarda esa nisbatan barqaror 16–19 foiz oralig‘ida shakllangan. Bu eksport salohiyatining oshganini ko‘rsatsa-da, 2024–2025 yillarda eksport ulushining pasayishi tashqi bozorlardagi talab, narxlar kon’yunkturasi yoki eksport tarkibidagi cheklovlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Import/YAIM ko‘rsatkichi esa 2018-yildan boshlab keskin yuqori darajaga chiqib, 2023-yilda 33,6 foizga yetgan. Bu holat iqtisodiyotda modernizatsiya, investitsion loyihalar va ishlab chiqarish uchun zarur texnika-texnologiyalar importi ortgani bilan izohlanadi, biroq importning eksportdan yuqori bo‘lishi tashqi savdo balansiga bosimni kuchaytiradi. Davlat qarzi/YAIM ulushi ham tahlil davrida sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatmoqda. 2016-yilda ushbu ko‘rsatkich 4,8 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda 23,8 foizga, 2023–2024 yillarda esa mos ravishda 31,5 va 32,6 foizgacha oshgan. Bu davlat investitsiyalari, infratuzilma loyihalari hamda pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish xarajatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2025-yilda davlat qarzi/YAIM ulushining 28,6 foizgacha pasaygani ijobiy holat bo‘lib, qarz yukining nisbatan barqarorlashayotganini bildiradi. Umuman olganda, jadval ma'lumotlari O‘zbekiston iqtisodiyotida tashqi sektor faolligi oshganini, biroq eksport salohiyatini kengaytirish, importga qaramlikni kamaytirish va davlat qarzini samarali boshqarish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim vazifa bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

Mehnat unumdorligi 2015-2024 yillarda muttasil o‘sib borgan bo‘lsa-da, o‘sish sur‘ati ko‘pincha 4-6 foiz diapazonida qolgan. 2018-yildagi 7,7 foizlik sakrashdan keyin ko‘rsatkich yana o‘rtacha darajaga qaytgan. Bu O‘zbekiston iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmining oshishi ko‘pincha kapital qo‘yilmalar va

bandlik kengayishi orqali ta'minlanayotganini, ammo samaradorlikka asoslangan sifat o'sishi hanuz yetarli darajada chuqurlashmaganini ko'rsatadi²¹.

Logistika samaradorligi indeksida O'zbekistonning umumiy balli 2010-yildagi 2,79 dan 2023-yilda 2,6 ga yaqinlashgan bo'lsa-da, reyting keskin yaxshilanib 2014-yildagi 129-o'rindan 2023-yilda 88-o'ringa ko'tarilgan. Bu tranzit yo'laklari, bojxona va transport infratuzilmasida ma'lum ijobiy siljishlar borligini anglatadi. Biroq ballning o'zi hali ham yuqori klaster mamlakatlari darajasiga yetmaganini ko'rsatadi²².



Rasm 5 2025-yilda O'zbekiston eksporti tarkibi


Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2025-yilda mamlakat eksporti tarkibida tovarlar segmenti yetakchi o'rinni egallab, uning ulushi jami eksport hajmining 71,1 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich eksport faoliyatida aynan moddiy tovarlar asosiy ahamiyat kasb etayotganini va tashqi savdo tushumlarining katta qismi shu yo'nalish hissasiga to'g'ri kelayotganini anglatadi. Eksport qilinayotgan tovarlar tarkibi tahlil qilinganda, nomonetar oltin hamda "boshqa tovarlar" guruhi 29,0 foiz ulush bilan eng katta hissani egallaganini kuzatiladi. Mazkur holat ushbu mahsulotlar tashqi bozorlarda yuqori talabga ega

²¹ National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2026) Sustainable Development Goal indicators: Goal 8. URL: <https://nsdg.stat.uz/en/goal/11>

²² World Bank (2025) Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. URL: <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/2c3adf3e-f349-46a3-b2ea-c44165d9201b>

ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, sanoat tovarlari eksport tarkibida 11,8 foiz ulush bilan muhim o‘rin egallagan bo‘lsa, oziq-ovqat va tirik hayvonlar guruhi 8,7 foizni tashkil etdi. Kimyoviy mahsulotlar esa jami eksportning 6,3 foiziga teng bo‘lib, eksport tarkibida sezilarli ulushga ega yo‘nalishlardan biri sifatida qayd etildi. Bu tarkib eksport hajmi oshayotgani kuzatilayotgan bo‘lsa ham, yuqori qo‘shilgan qiymatli qayta ishlangan mahsulotlar ulushi hali yetarli darajada katta emasligini ko‘rsatadi²³.



Rasm 3.1.6 2025-yilda investitsiyalarni moliyalashtirish tarkibi

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2025-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning 65,9 foizi xorijiy investitsiya va qarzlarni hisobiga moliyalashtirilgan. Bu holat O‘zbekistonning investitsiya modelida tashqi manbalar ulushi juda katta ekanini ko‘rsatadi. Bunday tarkib qisqa muddatda o‘rishni tezlashtiradi, biroq uzoq muddatda qarz yuki, valyuta riski va loyihalarning texnologik samarasini qat’iy nazorat qilishni talab qiladi²⁴.

Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil yakunlari bo‘yicha hisobotiga ko‘ra, 2025-yilda YAIM hajmi joriy narxlarda 1 849,7 trln so‘mni tashkil etib, real o‘rish 7,7 foizga yetgan; sanoat 6,8 foizga, xizmatlar 8,5 foizga, qurilish 14,0 foizga o‘sgan;

²³ National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2026) Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan, January-December 2025. URL: https://stat.uz/img/news/4_-talil-2025-j_-yanvar-dekabr-angl-_p47537.pdf

²⁴ World Bank (2026) Uzbekistan: Selected Indicators. World Bank. URL: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/0f93cd231799e55067bb0f83154c216a-0500022021/related/data-uzb.pdf>

inflyatsiya 7,3 foizni tashkil etgan; asosiy kapitalga investitsiyalar 591,1 trln so‘mga yetgan va ularning o‘shish sur‘ati 110,5 foizni tashkil qilgan; tashqi savdo aylanmasi 81,17 mlrd dollar, eksport 33,81 mlrd dollar va import 47,35 mlrd dollar bo‘lgan²⁵. Mazkur raqamlar eksport tarkibi, logistika sifati va mehnat unumdorligi jihatidan chuqur tarkibiy takomillashtirish zaruriyatini ham ko‘rsatadi.

Raqobatbardoshlikning hozirgi holatini baholash shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda o‘shish sur‘atlari yuqori bo‘lsa-da, iqtisodiy model hali to‘liq mahsuldorlik, innovatsiya va murakkab eksportga tayangan modelga aylanib ulguradi. Muammolarni tizimlashtirish uchun ularni tarkibiy, institutsional, investitsion, eksport-logistika, mehnat unumdorligi va inson kapitali hamda innovatsion cheklovlar ko‘rinishida ajratish maqsadga muvofiq²⁶.

O‘zbekiston eksporti hajm jihatidan tez o‘sayotgan bo‘lsa ham, uning ichki tarkibida nomonetar oltin, sanoat xomashyosi va o‘rta qayta ishlangan mahsulotlar hissasi yuqoriligicha qolmoqda. Bu esa eksport tushumining jahon narxlari tebranishlariga nisbatan sezgirligini saqlab qoladi. PF-158 farmonida eksport hajmini 45 mlrd dollarga yetkazish bilan birga tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ulushini 3,3 barobar oshirish vazifasi qo‘yilgani bejiz emas²⁷. Konstitutsiya va maxsus qonunlar bozor tamoyillarini kafolatlasa-da, amaliyotda ayrim tarmoqlarda davlat ulushi yuqori bo‘lib qolmoqda. Bu holat narx shakllanishi, resurs taqsimoti va bozorga kirish imkoniyatlariga ta’sir qiladi. Raqobatni rivojlantirish strategiyasida aynan davlat ishtirokining ortiqqligi, narxlarni haddan tashqari tartibga solish va texnik-regulyator yukning yuqoriligi asosiy cheklov sifatida ko‘rsatilgan²⁸. Yalpi investitsiyaning YAIMdagi ulushi yuqori bo‘lishi ijobiy holat. Biroq investitsiyaning iqtisodiy samarasi u qaysi tarmoqqa yo‘naltirilgani, qanday texnologiya olib kirgani va eksportga qanday ulanib ketgani bilan belgilanadi. 2025-yilda investitsiya moliyalashtirishining 65,9 foizi xorijiy investitsiya va qarzlar hissasiga to‘g‘ri kelgani investitsiya sifatini doimiy audit qilish zaruratini kuchaytiradi²⁹.

Uzbekistan Country Economic Memorandum xulosasiga ko‘ra, eksportni kengaytirish uchun narx raqobatbardoshligi bilan birga bozorga kirish va logistika

²⁵ National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2026) Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan, January-December 2025. URL: https://stat.uz/img/news/4_-talil-2025-j_-yanvar-dekabr-angl-_p47537.pdf

²⁶ World Bank (2025) Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. URL: <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/2c3adf3e-f349-46a3-b2ea-c44165d9201b>

²⁷ National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2026) Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan, January-December 2025. URL: https://stat.uz/img/news/4_-talil-2025-j_-yanvar-dekabr-angl-_p47537.pdf

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni UP-6019-son (2020) “On additional measures for further development of competitive environment and reduction of state participation in the economy”. Lex.uz. URL: <https://lex.uz/ru/docs/5693554>

²⁹ World Bank (2026) Uzbekistan: Selected Indicators. World Bank. URL: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/0f93cd231799e55067bb0f83154c216a-0500022021/related/data-uzb.pdf>

sifati yaxshilanishi zarur³⁰. PF-158 ning 53-maqсадida tranzit yuklarni 16 mln tonnaga yetkazish, shimoliy yo‘nalishda temiryo‘l tashish muddatlarini 40 foizga qisqartirish va xususiy operatorlarni logistika bozoriga keng jalb etish vazifalari belgilangan. Bu vazifalarning o‘zi ham logistika tizimi raqobatbardoshlikning zaif nuqtalaridan biri ekanini ko‘rsatadi³¹. 2015-2024 yillarda real YAIMning band bo‘lgan bir kishiga nisbatan o‘shirish sur‘ati ijobiy bo‘lsa-da, u texnologik sakrash uchun yetarli emas. Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari, ayniqsa qayta ishlash sanoati, muhandislik, logistikava biznes boshqaruvi bo‘yicha malakalar bilan qo‘llab-quvvatlanmasa, investitsiya o‘shirishning sifatini oshira olmaydi³².

Innovatsion faoliyat bo‘yicha huquqiy baza mavjud, ammo innovatsiya tizimining “universitet - biznes - moliya - hudud” zanjiri hali yetarlicha zich emas. Korxonalarining texnologik yangilanishi, standartlashtirish va xalqaro sertifikatlashga chiqishi sekin kechsa, eksportni murakkablashtirish qiyin bo‘ladi. Shu sababli innovatsion siyosatni alohida grant dasturlari emas, balki sanoat va eksport siyosati bilan bog‘lash zarur³³.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning milliy raqobatbardoshlik modeli hozircha yuqori klasterga mansub mamlakatlar darajasiga to‘liq yetib bormagan. Shu bilan birga, tahlil natijalari institutsional islohotlar va sanoat siyosati izchil hamda to‘g‘ri yo‘naltirilgan taqdirda mamlakatning o‘rta klasteridan yuqoriroq bosqichga o‘tish salohiyati mavjud ekanligini ham tasdiqlaydi. Shu sababli xorijiy tajribani oddiy ko‘chirib olish emas, balki natijalarga asoslangan holda tanlab olish va mahalliy sharoitga moslashtirish eng maqbul yondashuv sifatida qaraladi. Bunda O‘zbekiston uchun bir klasterga yaqin bo‘lgan o‘rta daromadli transformatsion iqtisodiyotlar tajribasi hamda yuqori klasterga kiruvchi Koreya Respublikasi, Singapur va Germaniya kabi mamlakatlarning institutlar, logistika tizimi, innovatsion siyosat va eksportni qo‘llab-quvvatlash borasidagi amaliy mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Jadval 3

Xorijiy tajriba asosida O‘zbekiston uchun ustuvor qo‘llash yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Muvaffaqiyatli	Nima uchun ishlagan	O‘zbekistonda qo‘llash mexanizmi
-----------	----------------	---------------------	----------------------------------

³⁰ World Bank (2025) Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. URL: <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/2c3adf3e-f349-46a3-b2ea-c44165d9201b>

³¹ World Bank (2023) International Logistics Performance Index dataset, 2007-2023. URL: <https://lpi.worldbank.org/report>

³² World Bank (2025) Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. URL: <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/2c3adf3e-f349-46a3-b2ea-c44165d9201b>

³³ World Bank (2025) Uzbekistan - World Bank Enterprise Survey 2024. URL: <https://microdata.worldbank.org/index.php/catalog/6711>

	tajriba		
Sanoatni modernizatsiya qilish va eksport murakkabligi	Koreya Respublikasi, Malayziya, Vyetnam	Sanoat siyosati eksport, texnologiya transferi va mahalliy kooperatsiya bilan bog'langan.	Mahalliyashtirishni oddiy import o'rnini bosish emas, eksportga chiqadigan zanjirlar bilan bog'lash; texnopark va EIZlarda KPI sifatida eksport, mahalliy kooperatsiya va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini joriy etish.
Raqobat muhiti va davlat ishtirokini qisqartirish	Germaniya, Qozog'iston, Turkiya	Xususiy sektor uchun teng qoidalar, ochiq bozor va antimonopoliya nazorati resurslar taqsimotini yaxshilagan.	UP-6019 va PF-158 doirasida davlat monopoliyalarini bosqichma-bosqich qisqartirish, davlat xaridlarida real raqobat va antimonopoliya compliance tizimini kuchaytirish.
Logistika va tranzit salohiyati	Singapur, Qozog'iston, Turkiya	Bojxona, multimodal transport va port/terminal boshqaruvi yagona samaradorlik standartlari asosida ishlaydi.	Raqamli bojxona, yagona tranzit oynasi, temiryo'l va avtomobil logistikasida xususiy operatorlar ulushini oshirish, chegara o'tish vaqtini KPI sifatida belgilash.
Investitsiya sifati va texnologik transfer	Malayziya, Vyetnam	FDI faqat kapital emas, balki texnologiya, eksport va ta'minot zanjiri integratsiyasi manbai sifatida boshqarilgan.	Investitsiya bitimlarida mahalliy ta'minot, kadr tayyorlash, eksport kontrakti va texnologiya transferi bo'yicha majburiy ko'rsatkichlarni nazarda tutish.
Mehnat unumdorligi va kasbiy ta'lim	Germaniya, Koreya Respublikasi	Dual ta'lim, korxonalar ichki tayyorlov va standartlashtirilgan malaka tizimi samaradorlikni oshirgan.	Sanoat zonalarini bilan bog'langan dual ta'lim markazlari, qayta ishlash va logistika bo'yicha qisqa modul dasturlarini joriy etish.
Innovatsiya va raqamli iqtisodiyot	Singapur, Koreya Respublikasi	Innovatsion siyosat biznes xizmatlari, ma'lumotlar, standartlar va startap ekotizimi bilan integratsiyalashgan.	Innovatsion faoliyat to'g'risidagi qonun asosida hududiy innovatsiya markazlarini sanoat va eksport loyihalari bilan bog'lash; korxonalarining sertifikatlash xarajatlarini qo'llab-quvvatlash.

Manba: tahlil xulosalari hamda xalqaro tajriba bo'yicha muallif tomonidan tuzildi.

PF-158 ning 55-maqsadida eksportni 45 mlrd dollarga yetkazish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar oshirish vazifasi belgilangan³⁴. Mazkur vazifani bajarish uchun Koreya Respublikasi, Malayziya va Vyetnam tajribasidan kelib chiqib, eksportni rag‘batlantirish siyosatini uch bosqichga ajratish lozim: birinchi bosqichda xalqaro standart va sertifikatlash xarajatlarini subsidiyalash; ikkinchi bosqichda eksportchi korxonalarini mahalliy kooperatsiya va logistika xizmatlari bilan bog‘lash; uchinchi bosqichda esa tayyor mahsulot eksporti bo‘yicha sektoral “champion firms” mexanizmini joriy qilish. Bu yerda asosiy KPI eksport hajmi emas, balki qayta ishlangan mahsulotlar ulushi, yangi bozorlar soni va eksportchi korxonalar unumdorligi bo‘lishi kerak.

PF-158 ning 53-maqsadi transport-logistika tarmoqlariga integratsiyani chuqurlashtirish, tranzit yuklarini 16 mln tonnaga yetkazish va tashish muddatlarini qisqartirishni nazarda tutadi³⁵. Singapur va Qozog‘iston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, logistika sifati faqat yo‘l qurilishi bilan emas, balki bojxona, terminal boshqaruvi, tranzit axborot tizimlari va private operatorlar kirishi bilan yaxshilanadi. O‘zbekistonda 2027-yilgacha “yagona tranzit oynasi”, elektron navbat, riskga asoslangan bojxona nazorati va temiryo‘l tariflarida shaffof formulani joriy etish maqsadga muvofiq. 2030-yilgacha esa asosiy koridorlar bo‘yicha tashish vaqtini kamida 30-40 foizga qisqartirish KPI sifatida belgilanishi kerak³⁶.

O‘zbekistonda investitsiya hajmi yuqori, ammo 3.1-band tahlili ko‘rsatganidek, har bir investitsiya teng darajada raqobatbardoshlik yaratmaydi. Malayziya va Vyetnam tajribasi asosida yirik investitsiya loyihalari uchun “sifat filtri” joriy etilishi lozim: loyiha nechta mahalliy yetkazib beruvchini rivojlantiradi, nechta malakali ish o‘rni yaratadi, qaysi texnologiyani olib kiradi va qancha eksport tushumi shakllantiradi. Shu mezonlar asosida 2027-yildan boshlab investitsiya bitimlari “kapital kiritish shartnomasi” emas, balki “texnologik va eksport natijasi shartnomasi” sifatida tuzilishi maqsadga muvofiq.

PF-158 47-maqsadida qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish vazifasi qo‘yilgan³⁷. Bu vazifani bajarish uchun Germaniya va Koreya tajribasiga tayangan holda sanoat zonalari, logistika markazlari va texnikumlar o‘rtasida dual ta’lim klasterlarini tashkil etish lozim. 2026-2027 yillarda elektrotexnika, oziq-ovqatni qayta ishlash, tekstil-mashinasozlik, logistika va sanoat

³⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-158-son (2023) “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida. Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-158-son (2023) “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida. Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>

³⁶ World Bank (2023) International Logistics Performance Index dataset, 2007-2023. URL: <https://lpi.worldbank.org/report>

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-158-son (2023) “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida. Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>

servislarida qisqa muddatli modul dasturlar joriy etilishi; 2028-2030 yillarda esa korxonalar ichki standartlari milliy malaka tizimi bilan bogʻlanishi zarur. Natijadorlik mezoni sifatida oʻqitilganlar soni emas, balki ishlab chiqarishdagi chiqim kamayishi, mahsulot sifati va bir ishchiga toʻgʻri keladigan qoʻshilgan qiymat olinishi kerak.

UP-6019 farmoni raqobatni rivojlantirish boʻyicha bank, telekom, gaz, temiryoʻl va aviatsiyada alohida dasturlarni nazarda tutadi³⁸. Endi ushbu hujjatni yangi bosqichga olib chiqish lozim: har bir tarmoq boʻyicha bozorga kirish toʻsiqlari, tarif shakllanishi, cross-subsidization, tarmoq operatorlarining ajratilishi va private access qoidalari boʻyicha aniq KPilar joriy qilinishi zarur. Oʻzbekistonda davlat ulushi qisqarishi faqat xususiylashtirish bilan emas, balki real raqobat va regulyator mustaqilligi bilan birga olib borilsa natija beradi. Oʻzbekiston milliy iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish boʻyicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Qisqa muddatda eksportchi korxonalarini standartlashtirish va sertifikatlash jarayonlarini qoʻllab-quvvatlash ustuvor yoʻnalishlardan biri boʻlishi lozim. Chunki xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish korxonalarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytiradi. Ushbu yoʻnalishda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda Oʻzstandart agentligi faol ishtirok etishi zarur. Natijada 2027-yilgacha xalqaro standartlar joriy etilgan korxonalar soni ortib, tayyor mahsulot eksporti ulushida barqaror oʻsish kuzatilishi mumkin. 2030-yilgacha esa yuqori qoʻshilgan qiymatli eksport ulushini sezilarli darajada kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Qisqa muddatda amalga oshirilishi zarur boʻlgan yana bir muhim yoʻnalish — yagona tranzit oynasi, elektron navbat va riskka asoslangan bojxona nazoratini keng joriy etishdir. Ushbu chora bojxona jarayonlarini soddalashtirish, chegaradan oʻtish vaqtini qisqartirish va logistika xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Bu borada Bojxona qoʻmitasi hamda Transport vazirligi asosiy masʼul institutlar sifatida ishtirok etishi lozim. 2027-yilgacha asosiy transport koridorlari boʻyicha chegara va logistika vaqti qisqarishi kutiladi. 2030-yilgacha esa tranzit yuk hajmi va xizmatlar eksportining sezilarli oshishiga erishish mumkin.

Oʻrta muddatda sanoat zonalarida dual taʼlim tizimini kengaytirish va yetkazib beruvchi korxonalar dasturini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv sanoat tarmoqlarida malakali kadrlar yetishmovchiligini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahalliy korxonalarini yirik ishlab chiqarish zanjirlariga ulash imkonini beradi. Bu jarayonda Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda viloyat

³⁸ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni UP-6019-son (2020) “On additional measures for further development of competitive environment and reduction of state participation in the economy”. Lex.uz. URL: <https://lex.uz/ru/docs/5693554>

hokimliklari hamkorligi zarur. 2027–2028-yillarda pilot klasterlarda bir ishchiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat oshishi kutiladi. Uzoqroq istiqbolda esa qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligi sezilarli darajada yuqorilashi mumkin. O‘rta muddatli choralardan yana biri davlat ishtiroki yuqori bo‘lgan bozorlarda bosqichma-bosqich liberallashtirish jarayonlarini davom ettirishdir. Bunday yondashuv bozorda raqobat muhitini kuchaytiradi, xususiyl sektor ishtirokini kengaytiradi va resurslarning samaraliroq taqsimlanishiga yordam beradi. Mazkur yo‘nalishda Raqobat qo‘mitasi, Davaktiv agentligi hamda tarmoq regulyatorlari muhim rol o‘ynaydi. 2027–2029-yillarda bozorga kirish to‘siqlari kamayib, tenderlarda raqobat soni ortishi mumkin. 2030-yilgacha esa nodavlat sektor ulushini oshirish va bozor mexanizmlarini kuchaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni yaxshilashga erishiladi.

Uzoq muddatli istiqbolda texnologiya transferi majburiyatiga ega investitsiya bitimlarini kengaytirish alohida ahamiyatga ega. Chunki faqat kapital jalb qilish emas, balki zamonaviy texnologiyalar, boshqaruv tajribasi va innovatsion ishlab chiqarish usullarini olib kirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. Bu yo‘nalishda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Investitsiyalar agentligi hamda tegishli vazirliklar hamkorlikda faoliyat yuritishi lozim. 2028–2030-yillarda yangi investitsiya loyihalarida mahalliy kooperatsiya va eksport ko‘rsatkichlarini joriy etish muhim natija bo‘lishi mumkin. Natijada investitsiyalar hajmi sifat jihatidan yaxshilanib, eksportni 45 mlrd dollarga yetkazish maqsadiga yaqinlashish imkoniyati kuchayadi. Shuningdek, uzoq muddatda hududiy ixtisoslashgan sanoat-logistika klasterlarini chuqurlashtirish ham muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda har bir hududning mavjud resurslari, sanoat salohiyati, transport-logistika imkoniyatlari va mehnat bozori xususiyatlaridan kelib chiqib, maxsus klaster strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Masalan, ayrim hududlarda agro-logistika, boshqalarida kimyo, elektrotexnika, tranzit yoki ishlab chiqarish-servis klasterlarini rivojlantirish mumkin. Ushbu jarayonda Vazirlar Mahkamasi, viloyat hokimliklari, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Transport vazirligi muvofiqlashtiruvchi rol o‘ynashi kerak. 2028–2030-yillarda hududiy klaster strategiyalarining tasdiqlanishi ichki hududiy farqlarni qisqartirish va tashqi bozorlarga integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA

O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini namoyon etayapti, ammo milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish masalasi hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, eksport tarkibining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmagani, logistika xarajatlarining yuqoriligi, ayrim tarmoqlarda mehnat unumdorligining pastligi, innovatsion faoliyatning sustligi va ayrim sohalarda davlat ishtirokining yuqoriligi iqtisodiy samaradorlikni cheklovchi omillar sifatida

namoyon bo‘lmoqda. Tahlillar mamlakatda raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur huquqiy va institutsional asoslar shakllanganini ko‘rsatdi. Biroq asosiy vazifa mavjud islohotlarning amaliy samaradorligini oshirish, iqtisodiyotda sog‘lom raqobat muhitini kuchaytirish, investitsiyalar sifatini yaxshilash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishdan iborat. Shuningdek, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun eksportni diversifikatsiya qilish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, inson kapitalini rivojlantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, investitsiya siyosatini texnologik rivojlanish va eksport salohiyati bilan uyg‘unlashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda xususiy sektor rolini kuchaytirish milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Central Bank of the Republic of Uzbekistan (2026). Year-on-year, month-on-month and cumulative inflation indicators. URL: <https://cbu.uz/en/monetary-policy/annual-inflation/indicators/>
2. Dani Rodrik Rodrik, D. (2004). Industrial Policy for the Twenty-First Century. Harvard University, John F. Kennedy School of Government Working Paper.
3. Delgado, M., Ketels, C., Porter, M.E. and Stern, S. (2012). The Determinants of National Competitiveness. NBER Working Paper No. 18249. Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research.
4. Ilkhomjonov, I.I. (2019). Teoreticheskie osnovy vliyaniya kachestva institutov i gosudarstvennogo upravleniya na konkurentosposobnost ekonomiki, in Upravlenie ekonomikoy, sistemami, protsessami: Proceedings of the III International Scientific-Practical Conference. Penza/Samara.
5. Michael Porter Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
6. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2026). Socio-economic situation of the Republic of Uzbekistan, January-December 2025. URL: https://stat.uz/img/news/4_talil-2025-j_yanvar-dekabr-angl_p47537.pdf
7. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan (2026). Sustainable Development Goal indicators: Goal 8. URL: <https://nsdg.stat.uz/en/goal/11>
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023) “The Constitution of the Republic of Uzbekistan”. Lex.uz. URL: <https://www.lex.uz/en/docs/6451070>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-158-son (2023) “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida. Lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni UP-6019-son (2020) “On additional measures for further development of competitive environment and reduction of state participation in the economy”. Lex.uz. URL: <https://lex.uz/ru/docs/5693554>
11. Paul Krugman Krugman, P. (1994). Competitiveness: A Dangerous Obsession. *Foreign Affairs*, 73(2), pp. 28–44.
12. Sirajiddinov, N., Zakirova, S.A., Sultanova, G.K., Ilkhomjonov, I.I. and Mingishov, L.U. (2021). Povyshenie konkurentosposobnosti ekonomiki Uzbekistana v usloviyakh liberalizatsii i uglubleniya ekonomicheskikh reform. Tashkent: IQTISODIYOT.
13. Tashpulatova, L. and Gayratova, M. (2025). The impact of digital technology on attracting foreign direct investment: foreign experience and its application in Uzbekistan. *American Journal of Economics and Business Management*, 8(10).
14. UNCTAD (2004). *Competition, Competitiveness and Development: Lessons from Developing Countries*. Geneva: United Nations Conference on Trade and Development.
15. World Bank (2023). International Logistics Performance Index dataset, 2007-2023. URL: <https://lpi.worldbank.org/report>
16. World Bank (2025). Uzbekistan - World Bank Enterprise Survey 2024. URL: <https://microdata.worldbank.org/index.php/catalog/6711>
17. World Bank (2025). Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. URL: <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/2c3adf3e-f349-46a3-b2ea-c44165d9201b>
18. World Bank (2026). Uzbekistan: Selected Indicators. World Bank. URL: <https://thedocs.worldbank.org/en/doc/0f93cd231799e55067bb0f83154c216a-0500022021/related/data-uzb.pdf>
19. World Economic Forum (2017). *The Global Competitiveness Report 2017–2018: Appendix A. Methodology and Computation of the Global Competitiveness Index*. Geneva: World Economic Forum.